

O'TKAN KUNLAR ROMANIDA RAHBAR PERSONAJLAR RUHIYATI VA IJTIMOY MUHIT MUNOSABATI

Xurramov Javlonbek Nurmaxmatovich

Annotatsiya. Badiiy asarlar qahramonlarining ruhiyatini o'rganishda ular xarakterining o'zlari mansub bo'lgan ijtimoiy muhit bilan aloqadorligini hisobga olish tadqiqotning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. "O'tkan kunlar" romanida Musulmonqul, Xudoyorxon, Azizbek va O'tabboq qushbegi obrazlari ruhiyati ma'lum darajada ijtimoiy muhit ta'siri bilan aloqadordir. Shu nuqtai nazardan asardagi rahbar personajlar ruhiyatini o'rganish muhim ilmiy-nazariy xulosalarning yuzaga kelishiga imkoniyat yaratadi.

Kalit so'zlar. Badiiy psixologizm, psixologik tasvir, psixologik tahlil, psixologiya fani yutuqlariga tayanish, tipologik prinsip, analitik prinsip, dinamik prinsip.

Abdulla Qodiriy xalq o'tmishiga murojaat qilib, "O'tkan kunlar" romanida "mavzuni moziydan, yaqin o'tkan kunlardan, tariximizning eng kirlik qora kunlaridan bo'lgan "xon zamonlari"dan" tanlashi hamda "Mehrobdan chayon" borasida "Turkiston feodallarining keyingi vakili bo'lg'an Xudoyorxonning o'z xohishi yo'lida dehqon ommasi va mayda hunarmand- kosib sinfini qurbon qilishi, mamlakat xotin qizlarini istagancha tasarruf etishi, bunga qarshi kelguchilar tilasa kim bo'lmasin rahmsiz jazo berishi ro'monning mavzui'dir" deyishi xonlar, beklar va shu kabi rahbar personajlar tasviri, xarakterini o'z davri ijimoiy hayoti bilan chambarchas aloqadorlikda tasvirlashni maqsad qilganini ko'rsatadi.

Muallif xarakter mantig'ini vujudga keltirishda , obrazlarni yaratishda "xon zamonlari" hayotini jiddiy e'tiborga olgan. Akademik Izzat Sulton Yusufbek hoji obrazining prototipi XIX asr 40-yillarida Toshkentda Azizbek zulmiga qarshi ko'tarilgan xalq qo'zg'oloni yetakchisi, mato to'qish ustaxonasining egasi Mayusuf ismli kosib ekanligini qayd etadi. Olim Yusufbek Hoji obrazining martabasi romandan ko'zlangan maqsadga muvofiq shaklda ekanligini ta'kidlaydi."Yusufbek hojining bu yuqori mavqei yozuvchiga uni katta siyosiy voqealar guvohi va ishtirokchisi qilib tasvirlashga imkon beradi".

Otabekning tuhmat sababli o'lim bilan yuzma-yuz kelishi hamda Musulmonqul va Xudoyorxonlar bilan uchrashuvi epizodlari o'sha davr ijtimoiy hayoti, shuningdek, hukmdorlar ruhiyatini ifodalashga imkon beradigan qilib tasvirlangan. Adib Ziyo shohichining uyidagi majlisda Otabek tomonidan aytilgan bir fikr vositasida o'z romanlaridagi hukmdorlar psixologiyasi va ularni harakatga undovchi hissiy munosabatlarni ta'sirchan aks ettira olgan. "Modomiki o'z g'arazi yo'lida istibdod orqali el ustiga hukmron bo'lg'uchilar yo'qotilmas ekanlar, bizga najot yo'qdir, magar shunday g'arazchilarni ular kim bo'lsalar ham ish boshidan quvlash va ular o'rniga yaxshi xolis odamlarni o'tqizish najotimizning yagona yo'lidir". Musulmonqul va boshqa rahbar personajlarning "o'z g'arazi yo'lida istibdod orqali el ustiga hukmron" bo'lishi ular ruhiyatining davlat ishlariga, xalq hayotiga va millat taqdiriga katta salbiy ta'sir qilganiga adib jiddiy e'tibor qaratadi. Musulmonqulning o'z qavmi madadiga tayanib, adovat bilan Sheralixonga qarshi isyon qilishi, Murodxonni o'ldirib taxtni egallashi, Salimsoqbekni aldov yo'li bilan huzuriga chorlab halok qilishi, uning ukasi bo'lgan o'z jiyani Xudoyorxonni kuyov qilib taxtga o'tkazgach amalda haqiqiy hukmdorga aylanishi "o'z g'arazi yo'lida" qilingan ishlar natijasi edi. Shunday ekan, Abdulla Qodiriy romanlaridagi rahbar personajlarning "o'z g'arazi yo'lida" qilgan harakatlari ortidagi asl

hissiy voqelikni idrok etish bu asarlar mazmun-mohiyatini yanada chuqur anglashda zarur ahamiyat kasb etadi.

Romanlardagi tarixiy shaxs bo'lgan rahbar obrazlari his-tuyg'ularini harakatga keltiruvchi sabablarni aniqlashda muallif uchun ham yaxshi tanish bo'lgan tarixiy asarlarga murojaat qilish mumkin. Mulla Olim Mahdum hojining "Tarixi Turkiston" asari O'rta Osiyo xonliklari o'tmishini yoritish maqsadida yaratilgan bo'lib, unda Qo'qon xonligidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, hukmdorlar faoliyati borasida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Abdulla Qodiriy bu tarixiy asarni mutolaa qilgan, o'z asarlarida tarixiy shaxslar va o'tmish voqeligini yaratishda bu kitobdan foydalangan degan xulosaga kelish uchun jiddiy sabablar keltirish mumkin. Birinchidan, "Tarixi Turkiston" 1915-yilda Toshkentda chop etilgan. Bu vaqtda o'lka matbuoti hamda ilmiy hayotini jiddiy kuzatib borayotgan, Turkiston tarixiga ulkan qiziqish bilan qaraydigan Qodiriyning shu sohada barchaga ma'lum va mashhur bo'lgan kitobni o'qimasligi mumkin emasdi. Ikkinchidan, adib "Mehrobdan chayon" da Xudoyorxon harami tasviriga bergan matnosti izohida Xudoyor harami to'g'risida yozguchi ruslarning qullarni kaniz va xonimlar bilan aralash yurgan holda ko'rsatishlari mublag'a ekanligini ta'kidlaydi. Bundan anglashiladiki, Qodiriy Turkiston o'tmishiga oid rus tarixchilari tomonidan yozilgan ko'plab kitoblarni ham mutolaa qilgan. Shunday ekan, uning o'z shahrida, o'z qiziqishlari to'g'risida, o'zi faol ijtimoiy jarayon qatnashchisi bo'lgan paytda yaratilgan "Tarixi Turkiston" ni albatta o'qigan va asarida bu kitob mazmun-mohiyatini jiddiy e'tiborga olgan, deyish mumkin. Shu sababdan adib romanlaridagi rahbar personajlar ruhiyatini tipologik tahlil prinsipi asosida asarda tasvirlangan muhit bilan uzviy munosabatini ko'rsatishda "Tarixi Turkiston" asariga tayanamiz.

O'tabboy qushbегining saroyga tashrif buyurishi epizodida Musulmonqul yaxshi qo'riqlanadigan xon saroyida sanoqli soqchilari bilan turgan Marg'ilon hokimidan nega bunchalik xavfsiradi? Nega O'tabboy kelgani haqidagi xabarni xudaychidan eshitganida "kuchlik bir tin olib" unga yuzlandi? Nega qushbегining yolg'iz o'zi huzuriga kirishini buyurib, uning askarlarini qattiq nazoratga olish haqida ko'rsatma berdi? Musulmonqul birgina tuhmat bahonasida Marg'ilon hokimini o'ldirib yuborishi mumkin edi. Biroq nega u qushbегidan hamla kutdi?

Musulmonqulning qo'rquvi u hokimiyat tepasiga kelguniga qadar bo'lgan ijtimoiy vaziyat bilan bog'liq edi. U Sheralixonga qarshi isyon qilib, xonlik qo'shiniga hujum qilishidan avval Marg'ilon hokimi bo'lgan Shodi dodho mingboshi etib tayinlanadi. Shu vaqtga qadar mingboshi bo'lgan Yusuf ismli mulozim Marg'ilon hokimi vazifasini bajara boshlaydi. Bu borada "Tarixi Turkiston" da shunday deyiladi. "...Sheralixon ularning maslahatlarini ma'qul ko'rib, Shodi dodhohga mingboshilik amalini berib, Yusuf mingboshini Marg'ilonga hokim aylab, Andijonning tavobioti qipchoqiya, qirg'iziyalari ilan Musulmonqulga berib, hamma qipchoqiya hukumatini anga topshurub, Muhammadnazar soqovni Toshkandg'a, Sarimsoqbek oldiga xizmat qilmoqqa yuboribdur".

Ikki qo'shin o'rtasidagi hal qiluvchi jang arafasida Musulmonqul Shodi mingboshi va Yusuf dodxohga hiyla ishlatib, tuzoq qo'yadi: "Musulmonqul yigirma-o'ttiz nafar nayzadorlarni orqa tarafiga bir-biriga birkirib qo'yub, o'zi yakka-tanho qo'shunning o'rtasiga kelib, odam yuborib aytibdurkim, Yusuf mingboshi kelsun, ikki uch kalima maslahatomuz so'zimiz bor, so'zlashib ahdu paymon qilishib, musoliha maslahatni o'rtaga solayluk, bu miyonada behuda ko'p qon to'kulmasin deb. Shodi mingboshi bu so'zni eshitib, o'tlanib, ikki uch yuz qadam yurgan vaqtda, bir tarafdin uch-to'rt otliq nayzador nayzasini Shodi mingboshiga to'g'irlab, yotquzib kelayotganini ko'rub, darhol qo'shun tarafiga qochib kelibdur".

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-1

Marg'ilonning avvalgi ikki hokimiga shu tarzda tuzoq qo'ygan Musulmonqul qilgan bu ishlarini jiddiy e'tiborga olib, bu shaharning endigi hokimi O'tabboydan kuchli xavfsirashining sababi shu edi.

Musulmonqul Otabekni o'limga hukm qilgan chog'ida huzuriga keltirilgan Normuhammad qushbegining Yusufbek hojining yordami va Toshkentning qaytarib olingani haqidagi maktubni o'qishi tasviriga e'tibor qaratamiz; "Musulmonqul maktubni tugatdi-da, uyatsiz ravishda Otabekka qarab iljaydi va xudaychiga buyurdi:

Ikkita zarrin to'n keltir!"

Toshkentni qaytarib olish masalasida Musulmonqulning "uyatsiz ravishda o'z qarorini bir lahzada o'zgartirishi va bundan aslo xijolat bo'lmasligiga muallif alohida e'tibor qaratadi. Shu davrada bo'lgan O'tabboyning holati "beixtiyor yoqasini ushladi" qabilida ko'rsatiladi. Musulmonqul xarakteridagi buqalamunlikning romanda bunday aniqlikda ishonch bilan tasvirlanishi tasodifiy hodisa emas. Muallif bu tarixiy shaxsning fe'l-atvorini turli manbalar vositasida atroflicha o'rgangach shu tarzda gavdalantirganiga shubha yo'q.

Musulmonqul Qo'qon shahrini egallab, taxtga Xudoyorni o'tkazgach, Toshkent hokimi bo'lib turgan Sarimsoqbekka maktub yuborib, uni iltifot bilan huzuriga chorlaydi: "Mazmuni shul ekan, Musulmonqul va Xudoyorxon tamomi arkoni davlatlari ilan iltimos qiladurki: "Dor ul-amora Ho'qandga tashrifi qudum qilsalar, otalarini o'ldurganlardan intiqom olib, nuri chashmlari Xudoyorxonni otalarining o'rniga xonlik masnadiga o'tkuzub, boshlarini podshohlik toji ila ziynat va oroyish berduk. Sizdan lozim emaskim, mamlakatingizni dushmanga tobe aylab, anga itoat etmakni o'zungizga lozim qilasiz va agar dor ul-amoraga kelmak to'g'risida dilingizga biror xavfu haros yo'l topgan bo'lsa, hammalarimiz qasami mug'liza ila ahd qilishib, o'z tarafimizdin hazrati Sohib Miyon Halil janoblarini yuborduk"

Sarimsoqbek bu qasamga ishonib, Qo'qonga kelganida Musulmonqul o'z ahdini buzib, Qodiriy ta'biri bilan aytganda "uyatsiz ravishda" ish tutdi. "Qachonki bu janoblar Ho'qand dor ul-amorasiga doxil bo'lganlarida Musulmonqul qilgan va'dalarini bi-l-kulli mahvu faromush aylab, hazrati Miyon Halilga ruxsat berib, Sarimsoqxonni Baliqchiga yuborib o'ldiribdur".

Toshkentni egallash maqsadida bu ishlarni qilgan Musulmonqul endilikda yana qo'lidan ketgan bu shaharni qaytarib olish uchun avvalgidek yuzsizlik qilishga, ahdini buzishga, bergan qarorini aslo xijolat bo'lmasdan bir lahzada o'zgartirishga tayyor. Bu holat Musulmonqulning Otabekni o'limga hukm qilishi epizodida yaqqol ko'rinadi.

Otabek kirib kelishidan avval Musulmonqul va O'tabboy qushbegi o'rtasidagi suhbatga Xudoyorxonning psixologik reaksiyasi ham asarda keltirilmagan Sarimsoqbek voqeasining asarda keltirilgan qahramonlar ruhiyatiga ta'sirini ko'rsatadi. Musulmonqul Azizbekni yo'q qilish uchun chora topish, bu borada Otabekdan foydalanish, Otabek vositasida Azizbekni zaharlab yoki boshqa biror yo'l bilan o'ldirish haqida O'tabboyga so'zlaganida muallif bu gaplarga ikki personajning va o'zining hissiy munosabatini ifodalaydi. "Musulmonqulning bu so'zlariga O'tabboy qushbegi tamom ishong'an, ammo Xudoyor ersa uning ilgarigi maqsadini yaxshi bilganlikdan nihoyatda taraddudga tushgan edi. To'g'risi ham bu keyingi gapi kishini mutaraddid qilmay qo'ymasdi". Xudoyorxonning Toshkent hokimini tadbir bilan yo'q qilish haqidagi fikrni eshitib, "nihoyatda taraddudga tushgan"i bu shaharda avval xuddi shu lavozimda faoliyat yuritgan akasi Sarimsoqbekning ham shunga o'xshash tadbir bilan o'ldirilganini esga olgani uchundir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Қодирий А. Ўткан кунлар: роман. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. – 464 б
2. Умутов Х. Ўзбек романчилигида бадиий психологизм - (қўлланма). – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1982, 46 б.
3. Умутов Х. Бадиий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Тошкент: “Фан”, 1983, 146
4. Шодиев Н. Рухият рассоми. – Тошкент: “Фан” нашриёти. 1977, 48 б.
Ҳозирги ўзбек адабиётининг миллий ўзига хослиги. – Тошкент: “Фан”. 1984, - 199 б.
5. Ҳозирги адабий жараённинг актуал проблемалари. – Тошкент: “Фан”, 1984, - 166 б.
6. Ҳамдамов У. Бадиий тафаккур тадрижи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2002. – 198 б.